

## **QUYOSH ENERGETIK QURILMASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN KOMBINATSIYALASHGAN TERMOFOTOELEKTRIK QURILMA**

**Murodov Muzaffar Habibullayevich,**

**Murodov Rivojiddin Nabijon o'gli,**

**Abduraimov Muzaffar Rustamjon o'g'li**

Namangan muhandislik qurilish institute

Mazkur ilmiy ishda bir qabul qiluvchi sirdan ham issiqlik, ham elektr energiyasini birligida ishlab chiqarish uchun termofotoelektrik qurilma ishlab chiqilgan va o'r ganilgan. Tavsiya etilgan energetik qurilma quyosh issiqlik kollektori uchun absorberdan iborat bo'lib, uning ustki qismiga polikristal quyosh elementlari joylashtirilgan.

Ushbu qurilma bino va inshootlar tom qismiga o'rnatiladigan kombinatsiyalashgan gelioprofildir. Konstruksiya quyosh energiyasi konvertorlarining quvvat xarakteristikalarini oshirish uchun mo'ljallangan.

**Kalit so'zlar:** absorber, fotoelektrik o'zgartirgichlar, termofotoelektrik qurilma, kremniyli quyosh elementlari, gelioprofil, quyosh energiyasining termofotoelektrik o'zgartirish.

## **COMBINED THERMOPHOTOELECTRIC INSTALLATION FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF A SOLAR POWER INSTALLATION**

**Murodov Muzaffar Khabibullayevich,**

**Murodov Rivojiddin Nabijon o'gli,**

**Abduraimov Muzaffar Rustamjon o'g'li**

Namangan engineering and construction Institute

**Abstract:** The article developed and investigated a thermo-photoelectric device for the combined production of heat and electricity from a single receiving surface. The proposed energy device consists of a solar heat collector absorber, on top of which polycrystalline solar cells are placed.

This unit is a combined helioprofile that can be installed on the roofs of buildings and structures. constructions. The design is intended to improve the energy performance of solar energy converters.

**Key words:** absorber, photoelectric converters, thermo-photoelectric installation, silicon solar cells, helioprofiles, thermo-photoelectric conversion of solar energy.

Quyosh energetikasining muammolaridan biri bu tushayotgan quyosh radiatsiyasining energetik potensialining yetarli emasligi va fotoo'zgartirgichlar va boshqa quyosh qurilmalarining F.I.K. ining pastligi. Ushbu tizimlarning samaradorligini oshirish uchun quyosh qurilmalarining ishchi yuzalariga tushadigan energiya oqimidan to'liqroq foydalanish kerak.

Ushbu bosqichda quyosh energiyasini qayta o'zgartirishda asosan elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun fotoelektrik modullar va issiqlik tashuvchini qizdirish uchun quyosh issiqlik kollektorlaridan foydalaniladi. Biroq, zamonaviy ilm-fan va texnologiyaning rivojlanishi bilan bir qatorda aynan bir sirt orqali bir vaqtning o'zida ham issiqlik, ham elektr energiyasini ishlab chiqarish mumkin bo'lgan quyosh qurilmalari tobora ko'proq paydo bo'la boshladi. Bunday qurilmalarni, termofotoelektrik quyosh qurilmalari – geliotexnikaning

yangi sinfi deb ishonch bilan aytish mumkin. Ushbu qurilmalar bir vaqtning o'zida sirtga tushadigan barcha quyosh nurlanishlarini issiqlik va elektr energiyasiga aylantiradi, ya'ni bir vaqtning o'zida issiqlik tashuvchini qizdiradi va o'zgarmas tok elektr generatori bo'lib xizmat qiladi [1].

Turli adabiylarda quyosh fotoelektrik va issiqlik qurilmalarini o'rganishlar keltirilgan [2-5]. Shu bilan birga, bunday ilmiy manbalarda gibrif fototermik qurilmalarning turli xil kombinatsiyalari bo'yicha ma'lumotlar mavjud [3, 5].

Kombinatsiyalashgan termofotoelektrik qurilmalardan foydalanish, ularni ishlab chiqarish uchun quvvat birligiga sarflanadigan materiallar sarfini sezilarli darajada tejashta imkon beradi, ularning umumiy F.I.K. va foydalanish samaradorligini oshiradi [1]. Buning sababi shundaki, termal geliotizimlarning absorberlari va quyosh panellari quyosh spektrining turli to'lqin uzunliklarini qabul qiladi hamda qayta o'zgartiradi, shuning uchun bitta ishchi sirdan ham issiqlik, ham elektr energiyasini olish mumkin. Gelio-fotoelektrik panellarini tayyorlash, ularni bitta qurilmaga birlashtirib seriyali ishlab chiqish natijasida qimmat selektiv qoplamlari absorberlar va fotoelektrik modul konstruktsiyalar uchun talab qilinadigan materialarga xarajatlarni kamaytiradi [2].

Quyosh energetik qurilmalarining asosoiy muammolari elektr va issiqlik energiyasiga aylantiriladigan quyosh nurlanishi zichligining kichikligi, F.I.K. past ko'rsatkichga ega ekanligi, natijada esa birlik quvvat uchun tannarxning qimmatligidir. Quyosh energetikasining past potensiali tufayli issiqlik va elektr energiyasi bilan ta'minlashda quyosh qurilmalaridan foydalanish samaradorligiga, samaradorlikning asosiy parametrlarini aniqlash metodlariga fotoelektrik modullarga hamda geliolkollektorlarga yuqori talablar qo'yiladi. Yassi issiqlik absorber va fotoelektrik batareyaning kombinatsilashuvi hisobiga tushayotgan quyosh radiatsiyasidan samarali foydalanishga va uni o'zgartirish koeffisientini ortishiga imkon beruvchi konstruksiyani yaratish mumkin.

Zamonaviy sanoat miqyosidagi mono va polikremniyli quyosh elementlari yassi konstriksiyaga ega va yutilish koeffisienti 95% ga teng bo'lgan holda F.I.K.i 18-20% ni tashkil etadi. Quyosh elementlarida nurlanishni o'zgartirishda 80% energiya asosan elementning qizishiga sarf bo'ladi va uning sifatli ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Quyosh elementlarini geliolkollektor absorberining sirtiga joylashtirilganda, ideal issiqlik almashinuvi amalga oshirilsa qurilmaning umumiy F.I.K.i sezilarli ortadi.

Quyoshli tizimning konturi bo'ylab aylanadigan issiqlik tashuvchi suyuqlik tomonidan issiqlikn olib ketilishi fotoo'zgartirgichlarning o'ta qizib ketishini oldini oladi va shunga muvofiq umumiy ishlab chiqarilgan elektr energiya miqdori ortadi. Quyosh elementlarining yuqori yutilish koeffisienti yutilgan quyosh energiyasining 80 foizigacha bo'lgan qismini issiqlik absorberining qabul qiluvchi yuzasini isitish uchun sarflashga imkon beradi. Sanoat miqyosidagi quyosh issiqlik qurilmalarida aksariyat absorberlar uchun 80% gacha o'zgartirish darajasi yuqori yuqori ko'rsatkich hisoblanadi.

Maqolada kombinatsilashgan termo-fotoelektrik qurilmaning ishlash printsipi ko'rib chiqilgan va tadqiq qilingan, uning issiqlik va elektr ko'rsatkichlari hisoblangan.


Tadqiqotning maqsadi – termo-fotoelektrik qurilma sirtiga tushayotgan quyosh nurlanishining oqimidan foydalanish samaradorligini oshirish va uning qabul qiluvchi birlik yuzasi uchun qayta o'zgartirish koeffisientini oshirishni nazariy va eksperimental tasdiqlash.

Barcha tajribalar Namangan viloyati hududi tabiiy sharoitlarida, ya'ni tajriba paytida doimiy quyosh nurlari ostida, o'lchov asboblari bilan amalga oshirildi [6].

Tadqiqotni amalga oshirish davomida o'zgaruvchan yuklamali qarshilik bilan fotoo'zgartirgichning toki va kuchlanishini to'g'ridan-to'g'ri o'lchash usuli va issiqlik tashuvchi haroratini o'lchash usullaridan foydalilanigan. Tajribalar keng tabiiy sharoitda, ochiq maydonda, tabiiy quyosh nurlari ostida o'tkazildi.

Kombinatsiyalashgan termo-fotovoltaik qurilma (1-rasm) to'g'ridan-to'g'ri turar-joy binolari tom qismini qoplash uchun mo'ljallangan to'liq hajmli sanoat geliprofilidir. Gelioprofil ichida suyuq holatdagi issiqlik tashuvchi uchun quvurlar, havo yoki issiqlik saqlovchi material uchun bo'shlqlar (kanallar) mavjud.

Bunday geliprofillar bilan tomoni balandligi 7 m gacha va kengligi cheklanmagan maydonini qoplash mumkin. Gelioprofilning qabul qiluvchi yuzasida ketma-ket ulangan 36 ta quyosh elementlari zanjiri mavjud. Fotoelementlar qabul qiluvchi yuzaga yuqori omik qarshilikka ega bo'lgan maxsus issiqlik o'tkazuvchi pasta yordamida biriktiriladi. Elementlar geliprofilning quyi qismi yuzasini 1/3 dan 1/2 qismigacha qoplaydi (1-rasm).



1-rasm. Termo-fotoelektrik qurilma

1 – tushayotgan quyosh nurlanishi; 2 – issiqlik yutuvchi sirt; 3 – quyosh elementlari; 4 – geliprofil yutuvchi yuzasining devorlari; 5 – havo kanali; 6 – suv kanali; 7 - quyosh batareyalarining elektr kontaktlari.

Issiqlik tashuvchi suyuqlikning past harorati va sirkulyatsiyasi tufayli elementlar sovutiladi, bu esa ish sifatini yaxshilaydi. Kremniyli quyosh elementlari spektrning issiqlik absorberiga tegishlisidan boshqa qismini o'zgartirganligi sababli, energiya ishlab chiqarishning umumiy o'sishi kuzatiladi.

Termo-fotoelektrik qurilma fotobatareyasi va absorberi ish jarayoniga oid nazariy tavsiflar quyidagi formulalar (1-4) bilan ifodalanadi [7]:

Quyosh batareyasining maksimal quvvati quyidagicha ifodalanadi:

$$P_{max} = F_{ff} I_{QT} U_{SI} = I_{max} U_{max} \quad (1)$$

bu yerda,  $F_{ff}$  – VAX to'ldirish koeffisienti,  $I_{QT}$  – qisqa tutashuv toki,  $U_{SI}$  – salt ishlash kuchlanishi,  $I_{max}$  – ishchi nuqtadagi tok kuchi,  $U_{max}$  – ishchi nuqtadagi kuchlanish.

Quyosh batareyasi F.I.K.i esa quyidagicha hisoblanishi ma'lum:

$$\eta_{QB} = \frac{I_{max} U_{max}}{S_{el} E_0} = \frac{P_{max}}{S_{el} E_{yo}} \quad (2)$$

bu yerda,  $S_{el}$  – quyosh elementlarining foydali yuzasi ( $m^2$ ),  $E_{yo}$  – ishchi yuzaning yoritilganligi ( $W/m^2$ ). Shuningdek, issiqlik absorberini hisoblash ham ma'lum usul bilan amalga oshiriladi. Vaqt birligi bo'yicha kollektordan chiqadigan foydali energiya  $Q_u$  (W) [13]:

$$Q_u = F_R A [I_T(\tau a) - U_L(T_i - T_a)] \quad (3)$$

bu yerda,  $A$  – kollektor yuzasi ( $m^2$ ),  $F_R$  – kollektor issiqlik chiqarish koeffitsienti;  $I_T$  – kollektor tekisligidagi quyosh nurlanishining umumiy zichligi ( $R$  burchak koeffisientini hisobga olgan holda),  $W/m^2$ ;  $\tau$  – quyosh nurlanishiga nisbatan shaffof qoplamlarning yoruglik o'tkazuvchanligi;  $a$  – kollektor plastinasining quyosh nurlanishiga nisbatan yutish qobiliyati;  $U_L$  – kollektoring umumiy issiqlik yo'qotish koeffitsienti,  $W/(m^2 grad)$ ;  $T_i$  – kollektorga kirishdagi suyuqlikning harorati,  $^{\circ}C$  (nominal rejimda);  $T_a$  – atrof-muhit harorati,  $^{\circ}C$ .

Amaliy hisob-kitoblar uchun ushbu formulaning soddalashtirilgan varianti ko'proq mos keladi:

$$Q_u = S_{QK} G C_P (T_{chq} - T_i) (W) \quad (4)$$

bu yerda  $S_{QK}$  – kollektor yuzasi ( $m^2$ ).

Shunga ko'ra, quyosh kollektoring F.I.K.i quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\eta_{QK} = \frac{Q_u}{S_{QK}E_{yo}} \quad (5)$$

Kombinatsiyalashgan qurilma uchun  $E_{yo}$ . yoritilganlik kollektorli va fotoelementli qismlar uchun bir xil.  $S_{QK}$  va  $S_{el}$  yuzalarining qiymatlari esa ekvivalent, ya'ni:

$$\eta_{QK} = \frac{P_{QK}}{S_{KQQ}E_{yo}}, \eta_{QB} = \frac{P_{QB}}{S_{KQQ}E_{yo}} \quad (6)$$

kabi yozish mumkin.

bu yerda (kombinatsiyalashgan qurilmaning)  $\eta_{QK}$  – quyosh kollektori, va  $\eta_{SB}$  – quyosh batareyasi F.I.K.i;  $P_{QK}$  va  $P_{QB}$  – mos ravishda kollektor va quyosh batareyasidan chiqayotgan quvvat,  $S_{KQQ}$  – bu *quyosh elementlari* bilan to'ldirilgan kombinatsiyalashgan quyosh qurilmasining foydali yuzasi.

Kombinatsiyalashgan qurilmaning umumiy quvvati qurilmaning termal va fotovoltaik qismlari quvvatlarining yig'indisiga teng:

$$P_{KQQ} = P_{QK} + P_{QB} = S_{KQQ}E_{yo}(\eta_{QK} + \eta_{QB}) = S_{KQQ}E_{yo}\eta_{KQQ} \quad (7)$$

bu yerda  $\eta_{KQQ}$  kombinatsiyalashgan qurilmasining umumiy F.I.K.i.

Shunday qilib, fotoelektrik tashkil etuvchi tufayli quyosh energiyasidan olinadigan quvvatning ko'payishi bilan qurilmaning umumiy F.I.K.i ortadi, ishchi yuzaning maydoni va yoritilganligi o'zgarmas bo'lib qoladi. Kombinatsiyalashgan qurilmaning qabul qiluvchi yuzasi quyosh elementlari bilan to'liq qoplanmagan bo'lsa, (7) formulani quyidagich almashtirish mumkin:

$$P_{KQQ} = S_{KQQ}E_{yo}(\eta_{QK} + f_{QEK}\eta_{QB}) \quad (8)$$

bu yerda  $f_{QEK}$  – kombinatsiyalashgan qurilmaning qabul qiluvchi yuzasini quyosh elementlari bilan to'ldirish koeffitsienti. Bizning holatda bu  $1/2$  dan  $1/3$  gacha o'zgaradi.

Qizish natijasida quyosh elementlarining F.I.K.i (9) formula bo'yicha kamayadi:

$$\eta_{QB} = f_{QEK}\eta_0(1 - k(T_i - T_0)) \quad (9)$$

bu yerda  $\eta_0$  – fotoelementning  $T_0=25$  °C dagi F.I.K.i,  $T_i$  – qizigan fotoelementning harorati (biz uni kollektorga kirish joyidagi suyuqlikning haroratiga teng deb olamiz), quyosh elementi F.I.K.ining kamayishi  $k$  – harorat gradientiga bog'liq va  $0,3\div0,5\text{ }^{\circ}\text{C}$  gacha [5].

Buni hisobga olgan holda, (8) formula (10) ko'rinishga keladi:

$$P_{KQQ} = S_{KQQ}E_{yo} \cdot \frac{GC_P(T_{chiq.}-T_i)}{E_0} + S_{KQQ}E_{yo}f_{QEK}\eta_0(1 - k(T_i - T_0)) \quad (10)$$

(1-10) formulalarga ko'ra, kollektorli va fotoelementli qismlarini hisobga olgan holda KQQning barcha parametrlari hamda xususiyatlarini aniqlash mumkin.

Tadqiqot ishlaring davomida kollektor yuzasini fotoelementlar bilan to'liq qoplash natijalarini o'rganish, hosil bo'lgan issiqlikni energetik maqsadlarda qayta yo'naltirish, elektr energiyasini esa to'gridan-tog'ri iste'molchilarga uzatish orqali quyosh energiyasidan samarali foydalanishni tadqiq qilish ham ko'zda tutilgan.

### Foydalilanilgan adabiyotlar

- [1] Кузнецов К. В. Исследование характеристик солнечного воздушного гибридного коллектора / К. В. Кузнецов, И. И. Тюхов, Э. Д. Сергиевский // Энергообеспечение и энергосбережение в сельском

хозяйстве, Труды 6-й Международной научно-технической конференции, 13-14 мая 2008 г. – Москва, ГНУ ВИЭСХ, 2008. – Ч. 4. – С. 227 - 231.

[2] Кувшинов В.В. Пат. 150121 Российская федерация; МПК H 01 L 31/00. Фототермопреобразователь солнечной энергии / Кувшинов В. В., Бацта А.И., Сафонов В. А.; патентообладатель Кувшинов В. В. – Заявка № 2014149414/93; заявл. 17.10.2014; опубл. 27.01.2015, Бюл. № 3.

[3] Tursunov M. N. et al. Photothermal batteries of different designs: comparative analysis //Heliotechnika. – 2017. – №. 1. – С. 26. (in Russian)

[4] Yuldashev, I.A., Shoguchkarov, S.K., Kudratov, A.R. et al. A Study of the Parameters of a Combined Photo-Thermoelectric Installation under Field Conditions. Appl. Sol. Energy 56, 125–130 (2020). <https://doi.org/10.3103/S0003701X20020115>.

[5] Tursunov M. N. et al. Photothermal electric battery based on silicon solar cells //Applied Solar Energy. – 2011. – Т. 47. – №. 1. – С. 63-65. (in English)

[6] Колтун М.М. Оптика и метрология солнечных элементов / М.М. Колтун // – М.: Наука, 1985. – 300 с.

[7] В.В. Кувшинов, Какушина Е.Г., Чванова Д.А. Использование фотоэлектрической установки для обеспечения бесперебойной работы автономных потребителей. Энергетические установки и технологии, Том 2, № 1., стр. 3-12, 2016.

[8] Adhamjon o'g T. A. A. et al. QUSHOSH PANELLARINI JOYLASHTIRISHDA IKKI BURCHAKLI USULDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI //E Conference Zone. – 2022. – С. 207-209.